

## **ADABIY ALOQA VA BADIY TARJIMA: KECHA VA BUGIN**

**Shahnoza Xolmaxmatovna Berdiyeva**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti o'qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada badiiy tarjimaga e'tibor va tarjima adabiyotining salmog'i ham yil sayin oshib borayotgani haqida tahlillar berilgan. O'zbek shoiri va yozuvchilari tarjimachilikni o'z ijodiy faoliyatlarining doimiy tabiiy yo'ldoshi, tarkibiy qismi deb hisoblagan holda, atoqli adiblarimiz Oybek, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor, Maqsud Shayxzodalarning an'analarini davom ettirib, yangi-yangi so'z san'ati xazinalarini ochmoqdalar. Jahon adabiyotining ajoyib badiiy obidalari tilimizda yangramoqda. Badiiy tarjima tufayli adabiyotning bag'ri behad kengaydi. Tarjima original adabiyot bilan yonma-yon odimlab bormoqda.*

***Kalit so'zlar:** Badiiy tarjima, Jahon adabiyoti, poema va romanlar, san'ati xazinalari, tarjima muommolari.*

### **ABSTRACT**

*This article analyzes the fact that attention to literary translation and the weight of translated literature is increasing year by year. Uzbek poets and writers consider translation to be a constant natural companion and component of their creative activities, continuing the traditions of our famous writers Oybek, Gafur Ghulam, Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor, Maqsud Shaykhzoda, and creating a new -they are opening new treasures of word art. Wonderful artistic monuments of world literature sound in our language. Thanks to artistic translation, the scope of literature has expanded tremendously. The translation goes hand in hand with the original literature.*

***Key words:** Literary translation, World literature, poems and novels, art treasures, translation problems.*

### **KIRISH**

XXI asr – tarixga ilmiy-texnika inqilobi asri bo'lib kirdi. Yer yuzida har 25 soniyada bir ilmiy kashfiyot ro'y berib turganini ko'z o'ngimizga keltirsak, fanning hozirgi taraqqiyot sur'ati haqida aniq tasavvur hosil qilish mumkin. Fan beqiyos taraqqiy etdi, texnika benihoya yuksaldi. Rus yozuvchisi Sergey Zaligin (Moskva) yozuvchilarning bir anjumanida so'zlagan nutqida fanda va san'atda yuz beradigan kashfiyotning o'ziga xosligi haqida gapirgan edi.

San'at kashfiyotining taqdiri esa buning aksidir. Bunda kashfiyotning dastlab yaratilishi, konkretligi hech qachon o'z ohorini yo'qotmaydi, doim porlab turadi.

Biron poema yoki roman yaratilgan ekan, uni kashf qilish prinsipi emas, shu san'at asarining o'zi abadiy qoladi.

Badiiy tarjimaga e'tibor kuchaymoqda, tarjima adabiyotining salmog'i ham yil sayin oshib bormoqda. O'zbek shoir va yozuvchilari tarjimachilikni o'z ijodiy faoliyatlarining doimiy tabiiy yo'ldoshi, tarkibiy qismi deb hisoblagan holda, atoqli adiblarimiz Oybek, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor, Maqsud Shayxzodalarning an'alarini davom ettirib, yangi-yangi so'z san'ati xazinalarini ochmoqdalar. Jahon adabiyotining ajoyib badiiy obidalari tilimizda yangramoqda. Badiiy tarjima tufayli adabiyotning bag'ri behad kengaydi. Tarjima original adabiyot bilan yonma-yon odimlab bormoqda.

O'zbek tarjimachiligi jo'g'rofiyasining xaritasi boy va rang-barang. Endilikda "tarjima" deganda faqat muayyan bir "begona" tildan – o'zbek tiliga kitob o'girish jarayoni tushunilmaydi, balki badiiy tarjimalarimiz o'zbek adabiyotining xalqaro miqyosdagi ko'p tomonlama munosabatlarini aks ettirib, ko'pincha, ma'naviy boylklarni o'zaro almashish prinsipiga asoslangan. Masalan, L.N.Tolstoyning "Urush va tinchlik" romani o'zbek tiliga o'girilgan ekan, rus kitobxonlari ham Alisher Navoiyning "Xamsa"sini o'z tillarida o'qimoqdalar. Shuningdek, Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romani ozarbayjon tiliga o'girilgan bo'lsa, o'zbeklar Samad Vurg'unning dostonlarini o'z tillarida mutolaa qilmoqdalar. Abdulla Kahhorning "Shohi so'zana" komediyasi – grek tiliga, qadimgi yunon adabiyotining o'lmas obidasi "Iliada" – o'zbekchaga, Sh.Rashidovning "Kashmir qo'shig'i" dostoni – forsiyga, Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma"si esa o'zbek tiliga tarjima qilingan. Tarjimachiligimiz qamrab olayotgan tillar, adiblar, janrlar, davrlarning hammasi qayd etiladigan bo'lsa, bu ro'yxat benihoya kengayib ketadi. Ammo keltirilgan misollarning o'zi ham o'zbek adabiyotining bugungi kundagi xorijiy g'arbu sharq hamda qardosh adabiyotlar bilan bo'layotgan o'zaro ichki va tashqi tarjimachiligi siyosatini namoyish eta oladi.

**Asosiy qism:** Umuminsoniy maqsadni ko'zlab qalam tebratgan har qanday yozuvchi va shoirning asari faqat bir xalqning mulki bo'lib qolmay, butun insoniyatning ham boyligidir. Binobarin, barcha xalqlar bir-birining ma'naviy boyligi, ya'ni adabiyot va madaniyati bilan uzviy aloqa o'rnatgan taqdirdagina o'zlarining adabiyoti va madaniyatini harakatga keltira oladilar.

Alohida olingan har bir milliy adabiyot mavqeidan turib qaralsa, tarjima ko'poq rang-baranglik, xilma-xillikka qulaylik tug'diruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Lekin, ikkinchi tomondan, tarjima bir qancha yetakchi nasriy, she'riy yoki dramaturgiyaviy uslublarning butun jahon bo'ylab tarqalishiga ko'maklashadi va, shunga ko'ra, jahon adabiyoti mavqeidan turib qaraganda, birlashtiruvchi omil

sifatida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, tarjima jahon adabiyoti taraqqiyoti tomon yo'naltiruvchi kuchdir. Biroq, shu bilan birga, original adabiyot taraqqiyoti bu jarayonga qarshilik ko'rsatadi: hozircha biz milliy adabiyotlarning qo'shilishidan ko'ra ularning parchalanishi, mustaqillik hosil qilishi tomon borayotganining shohidi bo'lamiz. Masalan, Osiyo va Afrika mamlakatlarida milliy adabiyotlar soni oshganligi va Yevropada ham shunga o'xshash ahvol sodir bo'layotgani ma'lum: chexoslovak adabiyoti chex va slovak adabiyotlariga bo'lindi, hatto Buyuk Britaniya singari an'anaviy madaniyatga ega bo'lgan mamlakatlarda ham milliy adabiyotlar sonining oshayotganligi ko'zga tashlanadi: u yerda ham shotland, valli va kornuel mualliflarining ijodida nisbatan kuchli markazdan qochirma kuch mayli seziladi.

O'zbek xalqi jahon sivilizatsiyasida madaniy millat atalmish buyuk xalqlar bilan bir qatorda insoniyatning ezgu orzu va istaklari aks etgan asarlardan bahramand bo'lish barobarida, uning o'zi ham jahon afkor ommasining talabi va didiga mos yuksak badiiy tafakkur namunalarini yaratib, jahon madaniyati xazinasini boyitmoqda. Bu o'rinda badiiy tarjima ishiga aloqador ba'zi masalalarga aniqlik kiritish zarur. Avvalo, qardosh xalqlar adabiyotlarini o'z tilimizga tarjima qilishdan kuzatiladigan maqsad nima? Bo'lak adabiyot asarlarini tarjima qilishga kuch sarflangandan ko'ra, original o'zbek adabiyotini rivojlantirishga yanada ko'proq e'tibor qilish maqsadga muvofiq emasmi? Tarjima tufayli nimaga erishiladi? Tarjima qanday xususiyatlarga ega? Badiiy ijodda nima uchun tarjimaga katta e'tibor berilmoqda?

Tarjimani mevali daraxt niholiga qiyos qilsa bo'ladi. Chunonchi, bir zaminda o'sib turgan nihol boshqa yerga o'tqazilganda ko'karib, meva beradi. Jahon adabiyoti durdonalari ham tarjima tufayli bir tildan boshqa tilga ko'chirilganda, o'sha tilning egasi bo'lan xalqning milliy ongini o'stirishda, yangicha estetik did paydo qilishda, dunyoqarashini tarbiyalashda faol rol o'naydi.

Tarjima tarbiyaviy, ma'rifiy va donishiy (bilish) ahamiyatiga ega. Original adabiyot orqali, asosan, o'z xalqimizning o'tmish, hozirgi va kelajak hayoti, tarixiy turmush sharoitlarini o'rgansak, badiiy tarjima asarlari orqali boshqa xalqlarning hayoti, ularning orzu-intilishlari, iqtisodiy turmush sharoitlarining badiiy in'ikosi bilan tanishamiz. Har ikkalasi: original adabiyot ham, tarjima adabiyoti ham bab-baravar ahamiyatga ega, ular izma-iz, qo'ltiqma-qo'ltiq rivojlanadi, birini ikkinchisidan ustun qo'yish mumkin emas.

Ma'lumki, bu ajoyib shoir o'zga bir qancha yevropalik so'z ustalaridan farq qilaroq, Sharqqa katta hurmat bilan qaragan. U Firdavsiy, Anvari, Sa'diy, Nizomiy, Rumi, Hofiz, Jomiyning ijodi bilan yaqindan tanish bo'lgan. Hofizni ustoz deb bilgan. Uning "G'arbu Sharq devoni" Hofiz g'azallariga taqlidan yaratilgan.

Keyingi yillarda shoirning shoh tragediyasi “Faust” o‘zbek tiliga o‘girildi. “Yosh Verterning iztiroblari” romani birinchi marta bevosita nemis tilidan tarjima qilindi. Gyote ijodi o‘zbek kitobxonlarining ma’naviy tarbiyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatibgina qolmay, o‘zbek shoirlarining badiiy tafakkur olamida ham chuqur iz qoldirgan. Asarning sahnalashtirilishi esa teatr taraqqiyotida muhim voqea bo‘ldi. Bularning barchasi yaxlit olganda bir butun adabiy-estetik jarayondir.

“Men bir umr Pushkindan o‘rganib keldim va o‘rganaman, – deb yozgan edi ozarbayjon shoiri Samad Vurg‘un. – Uning ijodi men uchun hamma vaqt buyuk ijodiy maktab bo‘lib keldi. Agar shoir o‘z ijodining Pushkin poeziyasiga ichki yaqinligini his etsa, agar uning ideallari va ijodiy intilishlari Pushkin poeziyasining ideallari va ijodiy intilishlariga muvofiq kelsa, agar u Pushkinni jon-dilidan sevsa, bu maktab unga ko‘p narsalarni o‘rgatishi mumkin. Bordi-yu bunday ichki aloqa bo‘lmasa, har qanday o‘rganish ham o‘zining ijodiy ahamiyatini yo‘qotadi va jonsiz, ko‘r-ko‘rona taqlid qilishga aylanib qoladi.

Bu so‘zlar yozuvchilarning ijodlari o‘rtasidagi ichki yaqinlik, adabiy ta’sir va badiiy tarjimaning tabiati, o‘ziga xos tomonlarini g‘oyat aniq ochib beradi. Ko‘zga ko‘ringan boshqa yirik adiblarning o‘z ijodlari misolida tarjima haqida bildirgan fikrlari ham bu haqiqatning hayotiylikini tasdiqlaydi.

Adabiy aloqa haqida gapirganda xalqlar o‘rtasidagi adabiy aloqalar nazarda tutiladi, milliy adabiyotlarning o‘zaro bir-biriga ta’siri va bir-birini boyitishi, masalan, rus adabiyotining o‘zbek adabiyotiga ta’siri tushuniladi. Ammo bu, bir tomondan, boshqa adabiyotlarning o‘zbek adabiyotiga ta’sirini inkor qilmaydi, chunki bizning adabiyotimizga ozarbayjon, tatar, ukrain, qirgiz va boshqa milliy adabiyotlarning ham ta’siri seziladi; ikkinchi tomondan, boshqa xalqlar adabiyotlari singari, o‘zbek adabiyoti ham rus adabiyotiga muayyan ta’sir o‘tkazadi. Masalan, Oybek, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor kabi yirik yozuvchilarning ijodiy tajribalari ko‘pgina rus yozuvchilari uchun maktab bo‘lganligi o‘z-o‘zidan ravshan. Boshqa adabiyot namoyandalarining ijodi xususida ham shunday deyish mumkin.

Ma’lumki, har bir yozuvchi – ichki ijodiy hamohanglik his etgan yozuvchining, har bir shoir – o‘zi “e’tirof etgan”, sevgan shoirining asarini tarjima qiladi. Aks holda, zo‘rma-zo‘raki, majburiyat yuzasidan qilingan tarjimadan, avvalo, san’at asari hosil bo‘lmaydi, ikkinchidan, tarjimon-yozuvchining o‘zi undan ijodiy naflanmaydi.

Baliq suv ichida bo‘la turib, suvdan “foydalanmasligi”ni aql bovar qilmagani singari, o‘z dilingga yaqin yozuvchining asarini tarjima qila turib, undan bahra olmaslik mumkin emas. (Albatta, bunday ta’sirning samarasini sezish uchun tarjima qiluvchi kishining o‘zi yaratuvchi, ijodkor bo‘lishi kerak, aks holda, o‘nlab qalin kitoblarni o‘z tiliga o‘girgan kishi ham hech qanday “ta’sir”ni his qilmaganicha,

oddiy tilmoch bo‘lib qolaveradi). Aksincha, biron yozuvchining ta‘sirini o‘z ijodida his qilish uchun “ta‘sirlanuvchi” adib uning asarlarini muqarrar tarjima qilgan bo‘lishi shart emas. Boshqacha aytganda, tarjima qila turib – ta‘sirlanmaslik mumkin emas, ammo ta‘sirlanib turib – tarjima qilmaslik mumkin. Masalan, Abdulla Qahhor Chexovning butun ijodiy mahsulini adib sifatida puxta o‘zlashtirgani va uning ta‘sirini o‘z ijodida chuqur his qilgani holda, bu ulug‘ yozuvchining nari borganda 10-15 ta hikoyasini o‘zbek tiliga tarjima qilgan, xolos.

Biroq shuni alohida ta‘kidlash lozimki, ijodkorlarning o‘zlari bevosita tarjima bilan shug‘ullanishlarida katta gap bor: bu tarjimalardan birinchi galda kitobxon foyda ko‘radi – ijodkor ijodkorni boshqa kishiga qaraganda nozikroq his qiladi, to‘g‘riroq tushunadi va bir-birining fikrini chuqurroq anglata oladi. Qush tilini qush tushunadi. Qolaversa, bunday tarjimadan yozuvchilarning o‘zlari ham manfaatdor, chunki ular original roman yoki qissa yozayotganidagina emas, balki jahon adabiyoti yoki qardosh xalqlar adabiyotlari xazinasidan o‘z hamkasblarining roman yoki qissasini ona tiliga tarjima qilayotganida ham ijodiy ish bilan mashg‘ul ekanliklarini his etadilar. Nihoyat, ijodkorlar o‘zga adabiyot namoyandalarining asarlarini tarjima qilishga sarflagan vaqtlarini qizg‘anmasalar ham bo‘ladi, chunki, ularning o‘zlari ham o‘z original ijodiy mahsullarining dunyo tillariga tarjima qilinishidan manfaatdor va buning uchun boshqa milliy tillarda ijod qiluvchi yozuvchilar ham o‘z vaqtlari (ehtimol, umri)ni sarflashlariga muhtojdirlar.

## **XULOSA**

Adabiy aloqa va ta‘sir haqida gap ketganda “ta‘sirlanuvchi” yozuvchining “ta‘sir etuvchi” adib ijodidan o‘z tiliga tarjima qilganligi ko‘zga yaqqol tashlanadi. Bizningcha, bu o‘rinda “tarjima – xalqqa” va “tarjima – yozuvchilarga” degan ikki tezisni ilgari surish mumkin. Albatta, badiiy tarjima – milliy yozuvchilar uchun katta ijodiy maydon va nazorat hosil qilish maktabi ekan, buni so‘z ustalarining qandaydir tor ijodiy mashg‘uloti, “adabiy ermagi” ma‘nosida talqin qilmaslik kerak. Tarjima – ma‘lum bir guruh kishilar yoki xalqning bir qismi, aholining bir toifasi uchun emas, balki butun xalq uchun yaratiladi. Agar, shartli ravishda, tarjimani buyurtma deb olinsa, buyuruvchi – xalq, tarjimon esa adabiy ijrochidir. Biroq ana shu tarjima jarayonida, obyektiv suratda, tarjimonning mahorati oshadi, u yozuvchining badiiy tasvir “sir”larini ochadi, ularni ijodiy o‘zlashtiradi, tili va uslubi boyiydi. Badiiy tarjima qardosh xalqlar adabiyotlarini bir-biri bilan chambarchas bog‘lab turgan, shuningdek, chet davlatlarda yaratilayotgan asarlarini mamlakatimiz ichkarisiga olib kiradigan, original ijod namunalarini boshqa xalqlarga taqdim qiladigan, sinalgan, mo‘jizakor vositalardan biridir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES):**

1. Иржи Левый. Искусство перевода. Изд-во “Прогресс”, М., 1974, стр. 234-235.
2. Lafasov, Urak Pazilovich, and Marxabo Raxmonkulovna Abdullayeva. "Abdulla Qodiriy romanlaridagi jonlantirish va tashxis tasvir usullari." *Tadqiqotlar. Uz* 39.3 (2024): 65-70.
3. Hamidov X. *Abdulla Qahhor uslubini tarjimada qayta yaratish masalalari (Monografiya)* //Publication date. – 2024. – T. 2.
4. Berdiyeva, Shahnoza & Azimjanovna, Mulladjanova. (2021). Exploring a flipped learning approach in teaching english for esp (english for specific purposes) students. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*. 11. 1535-1544. 10.5958/2249-7137.2021.00268.8.
5. Hamidov X. *TRANSLATION OF PROVERBS IN THE WORKS OF ABDULLA QAHHOR* //Sharqshunoslik. *Востоковедение. Oriental Studies*. – 2024. – Т. 2. – №. 04. – С. 74-82.
6. Hamidov, Xayrulla. "THE STORY OF" POMEGRANATE" IS IN TURKISH AND RUSSIAN LANGUAGES." *Sharqshunoslik. Востоковедение. Oriental Studies* 3.02 (2024): 39-47.
7. Hamidov K. K. *Translation Of Common Words And Phrases In The Novel “Days Gone By” By Abdulla Kadiri* //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES. – 2020. – Т. 1. – №. 01. – С. 12-18.
8. Hamidov, Xayrulla, and Marxabo Abdullayeva. "FRAZEOLOGIZMLARNING O ‘ZBEKCHA MUQOBIL VARIANTLARI VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI." *Konferensiyalar| Conferences*. Vol. 1. No. 8. 2024.
9. Qodirovna, Teshaboyeva Ziyodakhon. "Scientific and Theoretical Study of “Baburname” and Its ‘translations into the World Languages." *Journal of Critical Reviews* 7.3 (2019): 2020.
10. Qodirovna, Teshaboyeva Ziyodakhon. "SCIENTIFIC AND THEORETICAL STUDY OF “BABURNAME” AND ITS’TRANSLATIONS INTO THE WORLD LANGUAGES." *Journal of Critical Reviews* 7.3 (2019): 2020.
11. Mahbuba Kuvondikova, Teshaboyeva Ziyodaxon Qodirovna. *IMOM AL BUXORIYNING “AL-JOME’AS-SAHIH” ASARI TARJIMASINING AHAMIYATI*. 2024/1/15. *Журнал INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE*. b152-154
12. Kasimova, Sarvinoz Sayfullaevna. "Transformación de frases y sus destrucciones." *Salud, Ciencia y Tecnología-Serie de Conferencias* 3 (2024): 740-740.

13. Касимова, С. (2020). Работы великих турецких ученых, писавших об арабских пословицах и поговорках. Востокведения, 1(1), 154–166. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/oriental-studies/article/view/16641>
14. Begmatova B., Kasimova S., Zaynutdinova S. Syntactic and semantic analysis of constraints, states and absolute masdars //International Journal of Scientific and Technology Research. – 2020. – Т. 9. – №. 3. – С. 284-291.
15. Begmatova, Buzakhro Marufjanovna, and Sarvinoz Sayfullaevna Kasimova. "STUDY OF THE PROBLEM OF PREDICATIVITY AND ATTRIBUTION IN LINGUISTICS."